


Shaxsiy kabinetga kirish uchun tegishli maydonlarga mijozning login, paroli va SMS parolini kiritish kerak.

***Jismoniy shaxslar*** *uchun login pasport seriyasi va raqami (AA1234567; AD1234567) hisoblanadi.* ***Yuridik shaxs*** *uchun login BDMAB tomonidan unga berilgan mijoz- kod raqamidir.*

Shaxsiy Kabinetga dastlabki kirishda Mijozning parolini olish uchun xizmat ko’rsatish filialiga murojaat qilish kerak, shundan so’ng mijozning doimiy paroli SMS-xabar ko’rinishida telefon raqamiga yuboriladi. Keyin tegishli maydonlarga mijozning login va parolini kiritamiz va "Parolni olish" tugmasini bosamiz. Sizning mobil telefoningizga "SMS parol" qatoriga kiritilishi kerak bo’lgan belgilar to’plami aks etgan SMS-xabar keladi. Keyin "Kirish" tugmasini bosish kerak.

Shaxsiy Kabinetda Siz Internet orqali hisobvarag’ingiz holatini kuzatishingiz mumkin

Saytda quyidagi menyu bandlari mavjud:

- Bosh sahifa;
- Depozitlar;
- Kreditlar;
- Plastik kartalar;
- Interaktiv xizmatlar;
- Hisobotlar;
- Kalkulyatsiya;
- Chiqish.

Tizimga kirgandan so’ng, "Bosh sahifa" menyusi ochiladi. Bu yerda siz shaxsiy ma’lumotlaringizni (Ism, Familiya, Otasining ismi va manzil), shuningdek hisobvarag’ingiz ma’lumotlarini (Hisob ochilgan filial kodi, hisobvaraq raqami, hisob qoldig’i) ko’rishingiz mumkin.




Agar sizda omonat depozitlarida omonat hisobvarag’i ochilgan bo’lsa, "Depozitlar" bandida quyidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi:

- Depozit nomi;
- Omonat sanasi;
- Foiz stavkasi;
- Depozit qoldig’i;




"Plastik kartalar" menyusida Siz tomoningizdan Bankda ochgan plastik kartalar haqida ma’lumot ko’rsatiladi. O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan plastik karta turlarining nomlari bo’yicha o’tgan holda, ushbu bo’limda **UzCard, GlobUZ** milliy plastik kartalari, shuningdek **VISA** xalqaro kartalari haqida ma’lumot olish mumkin va quyidagi ma’lumotlar mavjud bo’ladi:

- Hisobingizning valyuta kodi;

- Karta raqami;
- Hisobraqami;
- Plastik kartangiz qoldig’i.
- Kartangizning holati;
- Kartani bloklash;

Ushbu turdagi kartalar uchun quyidagilarni bilish imkoniyati mavjud:

- U bo’yicha operatsiya amalga oshirilan kun;
- Operatsiya turi;
- Operatsiya shakli;
- O’tkazmalar summasi.




Agar Sizda bank krediti bo’lsa, "Kreditlar" bandida Sizga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

- Kredit turi;
- Valyuta kodi;
- Shartnoma bo’yicha summa;
- Shartnomaning boshlanish sanasi;
- Shartnomani yopish sanasi;
- Muddatli va muddati o’tgan qarzdorlik summasi;
- Kredit uchun hisoblangan foizlar.

"Interaktiv xizmatlar" bo’limida siz quyidagilar bilan tanishishingiz mumkin:

- Bizning filiallarimiz, manzillarimiz va filiallarimizning telefon raqamlari
- Omonatlar
- Blanklar
- Infokiosklar va bankomatlarning joylashuvi




"Hisobotlar" bo’limida:

- Kredit hisobvaraqlari harakati
- Kreditni to’lash jadvali



"**Kalkulyatsiya**" bo’limida kredit va omonatning taxminiy hisob-kitobini amalga oshirish mumkin:

- Ipoteka krediti
- Iste’mol krediti
- Omonat




